SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMI
QARORI

2023 - yil 30 - dekabr 392-9-130-Q/23 Guliston shahar hokimligi

Guliston shahar “Taraqqiyot” mahallasi Bunyodkor, Shifokorlar, Al-Xorazmiy ko‘chalari hududiga yo‘l belgisi o‘rnatish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qaroriga, Sirdaryo viloyati IIB JXX YHXBning 2023-yil 27-oktyabrdagi 10/6-572-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1.Sirdaryo viloyati IIB JXX YHXBning 2023-yil 27-oktyabrdagi 10/6-572-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Guliston shahar ichki organlari faoliyatini muvofiqlashirish boshqarmasi (B.Sayitnazarov), Guliston shahar IIB JXX YHXB (J.Naxanbayev)ga Guliston shahar “Taraqqiyot” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi

- Shifokorlar ko‘chasini Bunyodkor ko‘chasi bilan kesishgan tutashmasiga 3.3- “Mexanik transport vositalarining harakatlanishi ta’qiqlangan” 3.27. "To‘xtash ta’qiqlangan" yo‘l belgilarini;

- Shifokorlar ko‘chasini Al-Xorazmiy ko‘chasi bilan kesishgan chorrahasiga 3.1-“Kirish ta’qiqlangan” yo’l belgisi o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

3. Shahar hokimligi matbuot kotibi (Sh.Yunusov), mazkur qarorni “Guliston yangiliklari” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi devonxonasi (E.Nuriddinov), mazkur qarorni, qog‘oz va

elektron shakllarda bir kunlik muddatda tegishli davlat organlari hamda tashkilotlarga yetkazilishini tashkillashtirsin.

5. Ushbu qaror rasmiy manbalarda e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (A.Kamilov) zimmasiga yuklansin.

Guliston shahar hokimi **T.T.Dadabayev**